

**“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik
jamiyati Boshqaruvi Raisining**

MUROJAATI

Hurmatli mijozlar, hamkorlar, aksiyadorlar va hamkasblar!

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizning zamonaviy universal bankka xos milliy va xorijiy valyutadagi kredit, moliya, hisob-kassa va boshqa bank mahsulotlari turlarining barchasini amalga oshirib kelayotgan yetakchi muassasalaridan biridir.

Bank mamlakatimizning davlat banki sifatida o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi hamda o‘z vazifalarini sifatli va samarali bajarish uchun javobgar hisoblanadi. Bank o‘z faoliyatini mamlakat ichki moliya bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlashga va tashqi iqtisodiy faoliyatda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarni izchil himoya qilishga qaratib kelmoqda.

Bank O‘zbekiston bank sektoridagi yetakchi mavqeni saqlab qolishnigina maqsad qilmagan. Bizning strategik maqsadimiz – mamlakatning eng yaxshi banki maqomini olishdir!

Bizning Yuksak a’molimiz Bankning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan kelib chiqib, faoliyatimizning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Mijozlarimizning orzu-maqsadlari, ehtiyojlari Bankning tashkilot sifatidagi faoliyatni asosidir. Shu bilan birga, ushbu maqsadga erishish asosida uchta asosiy omil – mijozlar ehtiyojlari, jamiyat manfaatlari va Bank foydasi birligi va muvozanati yotadi.

Bugun amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning asosiy unsurlaridan biri, shubhasiz, halollik va o‘zaro hurmatga asoslangan korporativ madaniyatimizdir. Biz bir joyda qotib qolganimiz yo‘q, aksincha, korporativ shaffoflik darajasini oshirgan holda doimiy ravishda takomillashib bormoqdamiz.

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati o‘z faoliyatida halol, vijdonli va ochiq biznes yuritishning yuqori me’yorlariga amal qiladi. Biz korrupsiyani har qanday shakl va ko‘rinishlarda rad etish prinsipiga rioya qilamiz va jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo‘sishni o‘z burchimiz deb bilamiz.

Ushbu tamoyillarga rioya qilish uchun Bank miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi yaratildi va amalga oshirilmoqda. U qonun hujjalariiga, shuningdek, ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

egallagan mavqeidan qat’i nazar, barcha xodimlar, shuningdek, Bank nomidan yoki uning topshirig‘i asosida ish yurituvchi shaxslar uchun amal qilish majburiy bo‘lgan

“Korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati” va “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati”;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar uchun maxsus o‘quv kurslari;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xodimlar va mijozlar uchun tezkor ikki tomonlama aloqa kanallarini yaratish.

Dastur tamoyillari va standartlari Bankning barcha filiallarida tizimni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz korruption faoliyatga jalg qilingan yoki jalg qilinishi mumkin bo‘lgan shaxslar va tashkilotlar bilan ishbilarmonlik aloqalari xavfini kamaytirish, Siyosatlarni muntazam yangilab turish va uning talablari bajarilishini tekshirish uchun barcha zarur choralarni ko‘rmoqdamiz.

Biz ro‘y berishi mumkin bo‘lgan qonunbuzilishlari hamda aksilkorrupsion qonunchilik va Siyosatimiz talablarining buzilishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday harakat (harakatsizlik)lar haqida o‘z vaqtida ma’lumot olishdan manfaatdormiz. Guman qilinayotgan yoki amalga oshirilgan korruption holatlar haqidagi ma’lumotlar oshkor etilishi rag‘batlantiriladi.

Bankda xodimlar, mijozlar, shuningdek, har qanday uchinchi shaxslar murojaat qilib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklar to‘g‘risida xabar berishi uchun “Komplayens nazorat ishonch telefonii” tashkil etildi va faoliyat olib bormoqda.

Bank “Komplayens nazorat ishonch telefonii” orqali murojaat etgan arizachilarga hamda taqdim etilgan ma’lumotlarga nisbatan maxfiylik tamoyillariga rioya etilishini kafolatlaydi, ularni himoya qilish tartibini va, zarur holatlarda, ikki tomonlama aloqani ta’minlaydi.

Biz faoliyatimiz shaffofligini yanada oshirishga qaratilgan ilg‘or vosita va texnologiyalarni joriy etish yo‘lda sobitmiz. Jamoamiz adolatli raqobatni hurmat qiladi, barcha kontragentlar va sheriklar tomonidan Bankda o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillariga rioya etilishini ma’qullaydi va rag‘batlantiradi.

“O‘zmilliyybank” AJ
Boshqaruvi Raisi



A. Mirsoatov